

SHODMON SULAYMONNING SINONIMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Nigora Bafoyeva Azimovna

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi,

BuxDU mustaqil izlanuvchisi

bafoyevanigora@buxdpi.uz

Razzoqova Ferangiz Azamat qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tolmas ijodkor Shodmon Sulaymon she'riyatida aks etgan sinonimlarning badiiy-estetik xusussssiyati tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *sinonim, she'riyat, takror, nutq, yurt, she'riyat, til, ruh, kitobxon.*

Badiiy asarning qiymatini va qimmatini oshiruvchi omillardan biri ma'nodosh so'zlar Shodmon Sulaymon she'riyatida keng qo'llaniladi. Uning shaxs va ijodkor sifatida, xususan, shoir sifatidagi shakllanishida Vatanga bo'lgan muhabbat va dunyoviy bilimlar mafkurasi ta'sirida kechganki, adib ijodini ulardan ayro holda tushunish oson emas.

Badiiy asar yoxud nazmga murojaat chog'ida adib sinonimlardan keng foydalangan. Malumki, sinonimlar so'z sehrini namoyish etishda, nutqni bezashda, ta'sirchanligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Sinonimlar til boyligi hisoblanadi. Ular belgi predmet, shaxs, voqeaning bir necha nomlar bilan aytilishidir. Shu o'rinda tolmas ijodkor Shodmon Sulaymon ham o'z she'rlarida shaxs va predmetlarning eng nozik ma'no bo'yoqlarini ifodalashda sinonimlarga murojaat qilgan. Masalan:

G'udrandim tilimda kishanlar,
To'zonda yeb ketdi sasimni,
Ko'ksimni isitgil, Munavvar
Shivirla, qadrdon ismingni.

Adibning "Muvashshah" nomli she'ridagi misralarga e'tibor qaratadigan bo'lsak dominanta vazifasini bajaruvchi "gapirmoq" fe'li o'rnida "g'udranmoq" va "shivirlamoq" kabi sinonimlardan foydalanilgan. Sinonimlardan foydalanish jarayonida bir so'zning takror holda qo'llanilishiga yo'l qo'yilmagan. O'rinsiz takror nutqqa putur yetkazishi mumkin. Shu sabab ham ona tili imkoniyatlarimizdan va boshqa tillardan so'zlar olish yo'li bilan sinonimik qatorlar kengayaveradi.

Shoirlar borki, tom ma'noda kirib ko'rmagan ko'chasi qolmaydi, Shodmon Sulaymon ham sevgi va muhabbat bobidagi tuyg'ularini, dardlarini bayon qilish maqsadida "Izhor" nomli she'r uchun qalam tebratgan.

Ko'zlaring chaqnadi sasimdan
Horibsan, toliqdim o'zim ham
Izn ber, zimiston mavsumda
Qalbingda jon saqlay azizam!

Misralarda qator qo'llangan "horibsan" "toliqdim" fe'llarining bosh ma'nosini "charchamoq" fe'lini tashkil qiladi. Ushbu so'zlar ma'no va mazmun jihatidan bir biriga yaqinligi bois ma'nodoshlikni hosil qilgan. Shoir sinonimlar orqali ma'noni yanada kuchaytirish va ta'kidlash uchun xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham sifatlarning ma'nodoshligini anglash va o'z o'rnida qo'llay bilish so'zlovchining nutqiy mahoratini ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, Shodmon Sulaymon o'tkir qalam ustasi. Ayniqsa, uning "Men Vatan deb yo'lga chiqdim" she'ridagi har bir o'zbek yuragini jumbushga keltiradi:

Yurtim seni jondan ortiq ko'raman deb yo'lga tushdim...
Sen qay tomon yo'llar bo'lsang, boraman deb yo'lga tushdim...
Tikanlaring yuraginga sanchaman, deb yo'lga tushdim...
Ko'ksim giryon, Usmon xotin, o'paman deb yo'lga tushdim...
Cho'lpon menga bitgan xatni topaman deb yo'lga tushdim...

Vatan uchun jonini berishga, yurt dardini, iztirobini yelkaga ortishdek og'ir yukni ko'tarish shoir uchun asosiy maqsadga aylangan.

Aslida, xatboshi o'rnida keltirilgan birgina shu misralarning o'zida shoirning Vatanga bo'lgan iztirobi, limmo-lim sevgisi mujassam.

Shodmon Sulaymon bu misralarni shunchaki yozmagan. Bu satrlar zamirida Vatan uchun hamma narsaga tayyor shoirning qismati, Ona yurtga bo'lgan sadoqat ruhi qalam bilan jonlantirilgan.

Shoir she'rlariga yuzlangan, har bir kitobxon u qanday mavzuda bo'lishidan qat'iy nazar, Ona Yurtni madh qilishga, dardiga darmon bo'lishni xohlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Муродов Ф.Тарихий романнинг муштараклик ва узига хос уйғунлиги муаммолари. филология фанлари бўйича докторлик (DSc) дисс... – Тошкент, 2018. – Б. 29.
2. Абдулла Қодирийнинг «Ўтган кунлар» романи. «Адабий барқарор асарлар туркуми». –Т., 2019. –Б.19.
3. Bafoyeva, N. (2025). THE RELATIONSHIP OF PERSONAL NAMES TO THE VOCABULARY LAYER IN THE NOVEL "DAYS GONE BY". TAMADDUN NURI JURNALI, 1(64), 305-308.

4. Bafoyeva, N. (2024). International Journal of Informatics and Data Science Research: Semantic and Stylistic Analysis of the Anthroponym Musulmonkul in Abdulla Kadiri's Novel "Days by Gone". Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali, 4(4).

5. Bafoyeva, N. (2024). International Journal of Informatics and Data Science Research: Semantic and Stylistic Analysis of the Anthroponym Musulmonkul in Abdulla Kadiri's Novel "Days by Gone". Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali, 4(4).

6. International Journal of Informatics and Data Science Research: Semantic and Stylistic Analysis of the Anthroponym Musulmonkul in Abdulla Kadiri's Novel "Days by Gone"

